O‘ZBEK FILMLARIDA UCHRAYDIGAN MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI

Bakiyev Faxriddin Jamshid o‘g‘li,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotdchisi
Tel.: +99891467610
Email: bakiyev-fj@samdchti.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek kino diskursida uchraydigan milliy-madaniy birliklar lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida “Elparvar”, “Vatan” va “Novda” filmlarining o‘zbek tilidagi matnlari tanlangan. Tahlil natijasida film matnlarida uchraydigan milliy-madaniy birliklar verbal va noverbal guruhlarga ajratildi. Verbal birliklar tarkibida realiyalar, konseptlar, frazeologik birliklar, paremiyalar, murojaat shakllari, diniy birliklar, antroponimlar, toponimlar va dialektizmlar alohida guruh sifatida tasniflandi. Tadqiqot natijalari o‘zbek filmlarida xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va madaniy dunyoqarashi til birliklari orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, kino diskursi, milliy-madaniy birliklar, realiyalar, konsept, frazeologizm, paremiyalar

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya sharoitida audiovizual mahsulotlar, xususan, badiiy filmlar nafaqat estetik va informativ vazifani bajaruvchi san’at asari, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Film matni o‘zining ko‘p modalli tabiatiga ko‘ra verbal va noverbal vositalar uyg‘unligidan tashkil topgan murakkab semiotik tizim bo‘lib, unda milliy-madaniy axborot turli lingvistik birliklar orqali voqelanadi. Shu bois kino diskursida qo‘llaniladigan lingvomadaniy birliklarni aniqlash, ularning turlarini tasniflash hamda lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Lingvokulturologiyada V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlarning tadqiqotlarida til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi hamda lingvokulturemalarning milliy ong va madaniy tajriba bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ayrim til birliklari o‘zida muayyan xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini mujassamlashtirgan holda lingvokulturema maqomini kasb etadi. Bunday birliklar realiyalar, frazeologizmlar, paremiyalar, murojaat shakllari, diniy formulalar, antroponimlar,

toponimlar va boshqa madaniy markerlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Aynan shu birliklar xalqning lisoniy manzarasini shakllantirib, uning o‘ziga xos mental xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

O‘zbek filmlari ham xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy merosi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy makon hisoblanadi. Xususan, tarixiy va zamonaviy mavzudagi filmlarda uchraydigan milliy-madaniy birliklar o‘zbek xalqining turmush tarzi, oilaviy munosabatlari, diniy qarashlari, ijtimoiy institutlari va etnomadaniy tasavvurlari haqida muhim axborotni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada “Elparvar”, “Vatan” va “Novda” filmlari materiallari asosida o‘zbek kino diskursida uchraydigan milliy-madaniy birliklarning lingvokulturologik tasnifi amalga oshiriladi hamda ularning xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi.

Tahlillar natijasida film matnlarida uchraydigan milliy-madaniy birliklar ikki katta guruhga ajratildi: verbal va noverbal birliklar. Verbal birliklar tarkibiga realiyalar, konseptlar, frazeologik birliklar, paremiyalar, murojaat shakllari, diniy birliklar, antroponimlar, toponimlar va dialektizmlar kiritildi. Xususan, “Elparvar” filmida xon, bek, lashkar, sovut, qimiz, hashar, zavja, Haqqu kabi realiyalar tarixiy va etnografik koloritni shakllantiradi. “Vatan” filmida Sovet Ittifoqi, NKVD, Turkiston legioni, voyenkomat, front kabi tarixiy-siyosiy va harbiy realiyalar ustunlik qilsa, “Novda” filmida mahalla, oqsoqol, qishloq, asalarichilik, do‘ppi, osh, somsa, G‘ijduvon kabobi kabi maishiy-etnografik birliklar faol qo‘llangan.

Shuningdek, filmlarda VATAN, OILA, E’TIQOD, MUHABBAT, HURMAT va BAXT kabi konseptlar turli lingvistik vositalar orqali voqelangan. Frazeologik birliklar va paremiyalar esa xalqning hayotiy tajribasi va qadriyatlarini ifodalovchi vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari, diniy formulalar, antroponimlar va toponimlar ham film matnining milliy koloritini ta’minlovchi muhim komponentlar hisoblanadi.

O‘zbek filmlarida voqelashgan konseptlardan biri TAQDIR konsepti bo‘lib, u ayniqsa “Elparvar” filmida inson irodasi va tarixiy zarurat, shaxsiy tanlov va nasliy qismat o‘rtasidagi ziddiyat orqali namoyon bo‘ladi. M.Mamatqulovaning ta’kidlashicha, islom dinida va o‘zbek lingvomadaniy jamoasi tafakkurida fatalistik qarashlar ma’lum darajada ustuvor bo‘lib, taqdir “oldindan belgilab qo‘yilgan yozmish”, “qismat”, “peshonaga bitilgan ko‘rgulik” sifatida idrok etiladi [4]. Shu bilan birga, taqdir konsepti o‘zbek mentalitetida faqat passiv bo‘ysunish emas, balki insonning o‘z tanlovi va mas’uliyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Mazkur xususiyat “Elparvar” filmidagi Abduvohid va Mergan bobo o‘rtasidagi dialogda yaqqol namoyon bo‘lad:.

“Mergan bobo: Ketyapsanmi? Buncha tez?

Abduvohid: Buyruq shunday. Yoki siz o‘g‘lingizni Xorazm xoini bo‘lishini istayapsizmi?

Mergan bobo: Men o‘z farzandim taqdirini hal qilishga mutlaq haqsizman.

Abduvohid: Shunisiga ham shukur.

Mergan bobo: Xuddi sendek.

Abduvohid o‘g‘liga: Buni nimaligini bilansanmi? Nimaga yuragimga yaqin olib yurishimni bilasanmi? Buni bir paytlar bobong o‘z qo‘li bilan yasagan. Mening otam, sening bobom qo‘ygan eng yaxshi paykon nishi. Sening onang, mening zavjamni qatl qilgan paykon nishi. Bobong jon-jahdi bilan shuni unutishga urinayotgan mudhish ibtido.

Mergan bobo: Inson o‘z taqdirini o‘zi tanlashga haqli.

Abduvohid: Yetar, ota. Siz qanchalik o‘zingizni aldashga urinmang, qanchalik buni inkor qilmang, urush bizni ta'qib qiladi. U qonimizga singib ketgan! Mening o‘g‘limni bundan mustasno deb o‘ylayapsizmi?

Mergan bobo: O‘g‘ling yosh bola emas, o‘z hayotini o‘zi hal qiladi.

Abduvohid: Yosh bola emas? Mayli, unda marhamat, hal qilsin! Qani bolam, hal qil. Nimaiki qaror qilsang, qabul qilishga ont ichaman.” [3, 24:43 – 26:35]

Yuqoridagi dialogda Mergan boboning “Men o‘z farzandim taqdirini hal qilishga mutlaq haqsizman” hamda “Inson o‘z taqdirini o‘zi tanlashga haqli” degan fikrlari taqdirni insonning erkin irodasi bilan bog‘laydi. Bunga qarama-qarshi ravishda Abduvohidning “Urush bizni ta’qib qiladi. U qonimizga singib ketgan!” degan so‘zlari urush va kurashni nasldan-naslga o‘tuvchi tarixiy qismat sifatida talqin qiladi. Mazkur dialogda TAQDIR konsepti bevosita “taqdir” leksemasi orqali nominatsiyalanish bilan bir qatorda, “jon-jahdi bilan unutishga urinmoq”, “urushning ta’qib qilishi”, “qoniga singib ketmoq” kabi frazeologik va metaforik birliklar yordamida ham lingvistik voqelanadi. Ushbu dialogda taqdir konsepti o‘zbek lingvomadaniy tafakkuriga xos bo‘lgan ikki qarama-qarshi, biroq o‘zaro uyg‘un model – taqdirning ilohiy va tarixiy zarurat sifatida tushunilishi hamda insonning o‘z hayot yo‘lini tanlash huquqi haqidagi tasavvurlar sintezi orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari o‘zbek filmlarida uchraydigan milliy-madaniy birliklarning murakkab va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etishini ko‘rsatdi. Ularni verbal va noverbal guruhlarga ajratish hamda verbal birliklarni realiyalar, konseptlar, frazeologizmlar, paremiyalar, murojaat shakllari, diniy birliklar, antroponimlar, toponimlar va dialektizmlar kabi kichik guruhlarga tasniflash o‘zbek kino diskursining lingvokulturologik xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga imkon beradi. Mazkur tasnif o‘zbek filmlarini lingvokulturologik va

tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elparvar. Film. Rej. A.G‘aniyev. Uzbekfilm,2018.
2. Novda. Film. Rej. Z. Musoqov. Uzbekfilm, 2015.
3. Vatan. Film. Rej. Z.Musoqov. Uzbekfilm, 2006.
4. Mamatqulova M. Ingliz va o’zbek tillarida “TAQDIR” konseptining konseptual tahlili. (2026). Ijtimoiy-Gumanitar Sohada Ilmiy-Innovatsion Tadqiqotlar, 3(1), 68-72. https://publishscience.uz/sirsh/article/view/198
5. Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М.: Изд-во Российского университета дружбы народов, 1997. – 331 с.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
7. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с.
8. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1997. – 207 с.
9. Воробьёв В.В. Лингвокультурология // Теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 331 с.